

INGLIZ TILI SLENGLARIDA ANTROPONIMLAR TADQIQI

Sotvoldiyev Bunyodbek To‘lqinjon o‘g‘li

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Raximberdiyeva Muattarxon Akramjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ingliz tilidagi slenglar tarkibida antroponimlar juda ham keng tarqalgan bo‘lib, ularning qo‘llanishida bir qancha o‘ziga hos jihatlari mavjud. Ushbu maqolada antroponim komponentli slenglar orasidagi gender-neytral ismlar, kadigan hamda izokolonlar haqida so‘z yuritilib, ularning imkoniyatlari misollar yordamida dalillanadi.

Kalit so‘zlar: *antroponim komponentli sleng, gender-neytral ismlar, kadigan, izokolon, bikolon, trikolon, tetrakolon.*

Sleng tarkibidagi antroponimlar orasida **Gender-neytral ismlar (ingl. Gender-neutral names)**¹, ya’ni ikkala jins vakillariga (ham erkak, ham ayolga) ham birdek qo‘llaniladigan ismlar mavjud bo‘lib, bunday antroponimlarning soni ko‘p miqdorni tashkil etadi. Bunday atoqli ismlardan foydalanish asosan anglofonlar uchun hos bo‘lib, ayniqsa, Amerika Qo‘shma Shtatlarida bunday ismlarni qo‘llash juda ham keng tarqalgan.

Yuqorida keltirgan termindan tashqari, bunday ismlar uchun ingliz tilida yana **“Unisex name”**², **“Epicene name”**³ va **“Androgynous name”**⁴ atamalari ham ishlatiladi. Slengdagi Gender-neytral ismlarga quyidagilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: **Tom (slengdagi ma’nosi:** oq tanlilarga yoqish uchun ularga hushomadgo‘ylik qiladigan qora tanli odam)⁵ ismi **“Thomas”** ismli erkaklar va **“Thomasina”** ismli ayollar uchun ham birdek ishlatiladi; **Sam (slengdagi ma’nosi:** narkotik oldi-sotdisiga qarshi kurashuvchi federal agent)⁶ antroponimi esa ham

¹ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Unisex_name, (murojaat sanasi: 14:08, 15.07.2020)

² https://en.m.wikipedia.org/wiki/Unisex_name, (murojaat sanasi: 14:08, 15.07.2020)

³ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Unisex_name, (murojaat sanasi: 14:08, 15.07.2020)

⁴ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Unisex_name, (murojaat sanasi: 14:08, 15.07.2020)

⁵ Dalzell T. The Routledge Dictionary of Modern American Slang and Unconventional English (Preface). – New York: Routledge, Taylor & Francis Group, 2009. – p. 967.

⁶ Spears R. NTC’s dictionary of American slang and Colloquial Expressions, The US, : 2000. – p. 349.

“**Samson, Samuel**” ismli erkaklar uchun, ham “**Samantha, Samira**” ismli ayollar uchun foydalaniladi.

9. Antroponim komponentli slenglar orasida **Kadigan** (*ingl. kadigan*)⁷, ya’ni o‘zlari muhokama qilinayotgan kontekst ichida ismi mavjud bo‘lmagan, ismi noma’lum bo‘lgan, ismi/nomi unutilib qo‘yilgan yoki ismi hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan narsa nomlari va odamlarning ismlari o‘rniga qo‘llanuvchi so‘zlar ham mavjud bo‘lib, ular ingliz tilida yana boshqa “**Placeholder names / Placeholders**”⁸ va “**Cadigan**”⁹ atamallari bilan ham nomlanadi. Kadigan (*ingl. kadigan*) atamasini birinchi bo‘lib St’yuart Berg Fleksner va Xarold Uentvortlar o‘zlarining “*Dictionary of American Slang (1960)*” lug‘atida ishlatganlar. Ular “**Kadigan**” so‘zini adabiy tildagi “**Thingamagic / thingamabob / thingummy** – ob’ektning nomi unutilib qo‘yilganda, ko‘pincha og‘zaki nutqda uning o‘rniga ishlatiluvchi so‘z”¹⁰ so‘zining sinonimi sifatida ta’riflab o‘tganlar. Keyinchalik “Kadigan” va “Cadigan” atamallari Uil’yam Espi, Devid Ennis va boshqa yozuvchilar asarlarida ham qo‘llanila boshlandi.

Sleng tarkibidagi kadiganlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: **Tom, Dick and Harry** (ma’nosi: birop erkak, har qanday erkak) slengi ushbu ma’noda ismi noma’lum yoki ismi kontekstda berilishi shart bo‘lmagan erkak kishi (lar) uchun ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan slengdan tashqari, quyidagi slengni ham Kadiganga misol tariqasida qayd etishimiz mumkin: **Ozzie and Harriet (n pl.)** – o‘ta rasmiy va zerikarli bo‘lgan, o‘rta yoshli va o‘rta tabaqaga mansub juftlik. Ushbu sleng 1950-1960-yillarda AQSh televedeniellarida uzoq vaqt davom etgan tele-shou nomidan olingan bo‘lib, ushbu shouda huddi shunday juftlik obrazini “Ozzie Nelson” va “Harriet Nelson”lar gavdalantirganlar. Keyinchalik esa ularning ismlari har-qanday shunga o‘xshash juftlikni ifodalash uchun sleng sifatida ishlatila boshlangan.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan ikki slengga (1. Tom, Dick and Harry; 2.

⁷ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Placeholder_name, (мурожаат санаси: 14:00, 15:07.2020)

⁸ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Placeholder_name, (мурожаат санаси: 14:00, 15:07.2020)

⁹ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Placeholder_name, (мурожаат санаси: 14:00, 15:07.2020)

¹⁰ Cambridge Advanced Learner's Dictionary. Third Edition, © Cambridge University Press, e-dictionary, 2008

Ozzie and Harriet) nazar tashlagan holda aytish mumkinki, ular tarkibidagi parallel konstruksiyalar diqqatimizni tortdi. Bunday konstruksiyalar ingliz tilida **Izokolonlar** (*ingl. isocolon*)¹¹ deb ataladi. Izokolon atamasi grekcha “isos – teng” va “kôlon – a’zo” soʻzlaridan olingan boʻlib, u soʻzlar yoki boʻgʻinlar soni bir-xil boʻlgan parallel elementlardan tashkil topgan sxema hisoblanadi. U komponentlarining soniga qarab **Bikolon** (*ingl. bicolon*)¹², yaʼni ikkita parallel elementdan iborat izokolon; **Trikolon** (*ingl. tricolon*)¹³, yaʼni uchta parallel elementga ega izokolon va **Tetrakolon** (*ingl. tetracolon*)¹⁴, yaʼni toʻrtta parallel elementdan tashkil topgan izokolon kabi turlarga boʻlinadi.

Adabiy tilda uchraydigan eng mashhur trikolonlardan biri sifatida Yuliy sezarning “Veni, vidi, vici – Keldim, koʻrdim, gʻalaba qozondim” iborasini keltirishimiz mumkin.

Demak, ushbu fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, sleng tarkibida Kadigan sifatida yuqorida keltirib oʻtgan “Ozzie and Harriet” iborasini Bikolon (ikkita parallel, “Ozzie” va “Harriet” elementlaridan iborat), “Tom, Dick and Harry” slengini esa Trikolon (uchta parallel, “Tom”, “Dick” va “Harry” elementlaridan tashkil topgan) deb atash mumkin. Lekin, tadqiqotimiz doirasida Tetrakolonlar uchramaganini alohida taʼkidlash lozim.

Kadigan sifatida ishlatiluvchi slenglar sirasiga yana “**John Doe n** – nomaʼlum erkak”¹⁵; “**Jane Doe n** – nomaʼlum ayol”¹⁶ va “**Joe shmo n** – ismi nomaʼlum oddiy, zerikarli odam”¹⁷ slenglarini ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

“John Doe” va “Jane Doe” antroponimlari politsiya nutqida ismi nomaʼlum, shubha ostidagi shaxs yoki ismi nomaʼlum boʻlgan qurbonni ifodalash uchun ishlatiladigan sleng hisoblanadi. Masalan:

¹¹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Isocolon>, (мурожаат санаси: 01.07.2020, 20:37)

¹² <https://en.wikipedia.org/wiki/Isocolon>, (мурожаат санаси: 01.07.2020, 20:37)

¹³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Isocolon>, (мурожаат санаси: 01.07.2020, 20:37)

¹⁴ <https://en.wikipedia.org/wiki/Isocolon>, (мурожаат санаси: 01.07.2020, 20:37)

¹⁵ Green J. Green’s dictionary of slang. Digital edition ©. Jonathan Green, 2020

¹⁶ Green J. Ўша манба.

¹⁷ Dalzell T. Ўша асар.

No John Does in any of the city's various loony bins matched his description. (Green N. Angel of Montague Street, p.37, 2003)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dalzell T. The Routledge Dictionary of Modern American Slang and Unconventional English (Preface). – New York: Routledge, Taylor & Francis Group, 2009. – 1104 pp.
2. Spears R. NTC's dictionary of American slang and Colloquial Expressions, The US.: 2000. – 560 pp.
3. Elektron lugʻat: Cambridge Advanced Learner's Dictionary (3rd ed.) (CALD 3). – Cambridge University Press, e-dictionary, 2008.
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Placeholder_name.
5. <https://en.wikipedia.org/wiki/Isocolon>.
6. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Unisex_name.